

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

7

2023




- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti



7491

ISSN: 2992-8982

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rincbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

## Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rincbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rincbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rincbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rincbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YomMMIB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rincbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

## Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan .....	6
<b>Raekwon Chung</b> , Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE	
Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari .....	8
<b>Nodira Shotursunova</b> , Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
"Yashil iqtisodiyot"dan "yashil taraqqiyot" sari .....	12
<b>Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich</b> , t.f.n., dotsent	
Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari.....	16
<b>Egamov Zoxid Baxtiyarovich</b> , bosh mutaxassisi	
Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development:	
Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development .....	26
<b>Muratova Muzayana</b> , Teacher	
Анализ состояния применения механизма инновационного управления инфраструктурами нефтегазовых предприятий в условиях глобальной потепление земли.....	34
<b>Кучаров Аброр Сабиржанович</b> , профессор; <b>Динара Нурмамад кизи Ишманова</b> , доцент; <b>Тю Константин Геннадьевич</b> , соисследователь	
Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills	
of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy .....	39
<b>Nargiza Samandarova Muxammadovna</b> , Teacher	
The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy.....	47
<b>Ikromov Sayidolim</b> , Teacher	
O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari.....	54
<b>Rasulova Nigora Yusupovna</b> , kafedra assistenti	
Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmnинг аhamiyati .....	58
<b>Jontemirova Iroda Ikrom qizi</b> , talaba	
Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot"ning o'rni .....	61
<b>Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna</b> , talaba	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati.....	64
<b>Raxmanov M. A.</b> , tayanch doktorant	
Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education.....	68
<b>Tukhtaeva Shakhnoza</b> , Teacher	
Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari.....	75
<b>Bauyeddinov Majit Janizaqovich</b> , kafedra dotsenti; <b>Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli</b> , tayanch doktoranti	
Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash .....	79
<b>Berkinov Bozorboy</b> , iqtisodiyot fanlari doktori, professor; <b>Qulmatova Sayyora Safarovna</b> , PhD; <b>Ruxsatova Rushana O'ktamovna</b> , erkin tadqiqotchisi	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari .....	86
<b>Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari.....	97
<b>G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich</b> , i. f. d., professor; <b>Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich</b> , i. f. f. d. (PhD)	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	102
<b>Raxmanov Mexridin Sindarovich</b> , kafedra dotsent v. b.	
Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	106
<b>Ortiqov Uyg'un Davlatovich</b> , kafedra dotsenti, i.f.n.	
Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания .....	115
<b>Марданова Барно Асатуллоевна</b> , докторант	
Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan .....	119
<b>Aziz Zikriyoev</b> , PhD	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	129
<b>Kambarova Sh. M.</b> i.f.b.f.d. PhD	



Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari.....	134
<b>Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna</b> , dotsent	
Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari .....	139
<b>Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich</b> , i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; <b>Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna</b> , talaba	
Byudjyetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli .....	147
<b>Norov Akbar Ruzimamatovich</b>	
O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari tahlili .....	151
<b>Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich</b> , i.f.f.d.(PhD)	
Aholining tadbirkorlik faoliyatini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli .....	158
<b>Xudayarova Maftuna Shavkatovna</b> , tayanch doktorant	
Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi .....	164
<b>Karimova Shirin Zoxid qizi</b> , tayanch doktorant	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash .....	168
<b>Shakirova Nigora Axralovna</b> , kafedra dotsenti v.b.	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida .....	172
<b>Raximbayev Akmal Azatboyevich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management.....	177
<b>Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna</b> , PhD	
Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati .....	182
<b>Xushvaqov Islombok Muxammadi o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati.....	186
<b>Abduturopov Jasurbek Nozimjonovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	195
<b>Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li</b>	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi.....	199
<b>Abduturapova Dildora Farxodjon qizi</b> , tayanch doktorant	
Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili .....	205
<b>Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich</b> , 3 st year doctoral student	
Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatichiligi faoliyati tahlili.....	210
<b>Tashmuxamedova Yayra</b> , tadqiqotchi	
Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance.....	213
<b>Rakhimova Gulnoza</b> , Teacher	
Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия).....	218
<b>Искендер Аккуралай Абдиуалиевна</b> , докторант	
Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri.....	222
<b>Kutbitdinova Moixigul Inoyatovna</b> , kafedra dotsenti; <b>Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi</b>	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны .....	228
<b>Суюнова Фотима Баходир кизи</b> , базовый докторант	
Targetirovaniye inflatsii v Uzbekistane: predposylki primeneniya i pervyye itogi .....	233
<b>Рашидов Рахимжон Исандарович</b> , в.и.о доцента; <b>Якубова Шамшинур Шухратовна</b> , к.э.н., доцент, докторант (DSc)	
O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni .....	240
<b>Nomozova Qumri Isoyevna</b> , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	248
<b>Nazarov Qilich Xolmuradovich</b> , kafedra assistenti	
Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni .....	255
<b>Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	262
<b>Do'sanov Doniyor</b> , magistr	



Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar.....	269
<b>N. N. Ro'ziyev</b>	
Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan.....	277
<b>Sattorova Nasiba G'anijon qizi, Teacher</b>	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati.....	284
<b>Murodova Dilnoza Choriyevna, PhD</b>	
Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish .....	288
<b>Gadoyev So'hrob Jumakulovich, mustaqil tadqiqotchi</b>	
Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari.....	295
<b>M. A. Saparova, talaba</b>	
Prioryetetnye napravleniya modernizatsii sistemy podgotovki turistskikh kadrov.....	299
<b>Ochilova Xilola Farmonovna, k.э.н., dozent</b>	
Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development .....	304
<b>Vafoyeva Dilafruz, Teacher</b>	
O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari .....	311
<b>Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, katta o'qituvchisi, PhD</b>	
O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili .....	316
<b>Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna, tayanch doktorant</b>	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategyalaridan foydalanish yo'llari .....	323
<b>Xalilova Nafisa Komilovna, magistrant</b>	
Ko'zi ojiz shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba .....	327
<b>Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li, tayanch doktarant</b>	
Optimizatsii operacionnoi strategii i povyshenie ekonomicheskogo potentsiala chlopkovo-tekstil'nykh klastерov .....	334
<b>Dzhurabaev Otabek Dzhurabaevich, dozent kafedry</b>	
Neobходimost' upravleniya aktivami i passivami sovremennymi bankami Uzbekistana .....	341
<b>Fattahova Munisa Abduxamitovna</b>	
Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri .....	349
<b>Jumabayeva Akmole Sheraliyevich, magistrant</b>	
Cifrovaya valyuta:可能ные последствия вывода из обращения наличных денег .....	354
<b>Baxromov Mirzaakhmad Rustam ugли, student; Abdikarimova Dina Rустамхановна, научный руководитель, д. э. н. (DSc)</b>	
Systematic mapping study of higher education in green development context.....	361
<b>Asqarova Feruza Abdullaevna, Senior Teacher</b>	
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari.....	368
<b>Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li, kafedra o'qituvchisi; Shaymanova Nigora Yusupovna, tayanch doktoranti</b>	
Oсобенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации.....	373
<b>D. K. Ismagilov, kandidat pedagogicheskikh nauk, dozent</b>	
Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development.....	377
<b>Shodmonkulova Shahlo, PhD student</b>	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi .....	384
<b>Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi</b>	
Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari.....	390
<b>Voxidov Oybek Rozikovich, mustaqil tadqiqotchisi</b>	
Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy .....	398
<b>Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli, Teacher</b>	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari .....	406
<b>Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna, mustaqil izlanuvchi (PhD)</b>	



# O'ZBEKISTONDA SAVDO XIZMATLARI SOHASINING RIVOJLANISH TENDENSIYASI VA ISTIQBOLLARI

**Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li**  
**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**  
**Marketing kafedrasи katta o'qituvchisi, PhD**



**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekistonda milliy iqtisodiyotni tubdan isloh qilish jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor vazifalaridan biri bo'lgan savdo xizmatlarini ko'rsatish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishdagi roli, O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasini bugungi kundagi holati va rivojlanishi hamda uning istiqbollari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** savdo xizmatlari, savdo tovar aylanmasi, sifat, xizmatlar sohasi, maxsus imtiyozlar.

## ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ ТОРГОВЛИ УСЛУГАМИ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация:** В статье раскрывается роль предприятий торгового обслуживания, что является одной из приоритетных задач социально-экономической политики в процессе коренного реформирования народного хозяйства, в повышении конкурентоспособности, современное состояние и развитие сферы торговых услуг в Узбекистан, и его перспективы.

**Ключевые слова:** торговые услуги, товарооборот, качество, сфера услуг, специальные льготы.

## DEVELOPMENT TENDENCIES AND PROSPECTS OF TRADE SERVICES IN UZBEKISTAN

**Abstract:** In the article, the role of trade service enterprises, which is one of the priority tasks of socio-economic policy in the process of fundamental reform of the national economy, in increasing the competitiveness, the current state and development of trade services in Uzbekistan, and its prospects are revealed.

**Key words:** trade services, trade turnover, quality, service sector, special benefits.

## KIRISH

Mamlakatimizda savdo xizmatlarining rivojlanishi bilan bir qatorda iste'molchi xulq-atvorining o'zgarishi, xaridorlar tomonidan tovarlarning sifati va assortimentiga hamda ko'rsatilayotgan savdo xizmatlariga bo'lgan talabining tobora ortib borish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bunday sharoitda xaridorlarga qo'shimcha savdo xizmatlarini taklif etish orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va takroriy xaridini raqobatlantirish savdo xizmatlarini ko'rsatishdagi raqobatbardoshlikni oshirishning zamonaviy yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy mehnat taqsimoti va umumiyl tomonidan tijorat kapitalining taqsimlanishi sanoat kapitali savdoni iqtisodiyot va iqtisodiyotning alohida mustaqil tarmog'i sifatida ajratib ko'rsatdi. Hozirgi vaqtida jahonda savdo faoliyati tadbirdorlik faoliyatining eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Savdo faoliyatining o'ziga xosligi shundaki, u ko'p sonli inventar obyektlari bilan bog'liq. Savdo biznesi eng muhim vazifani hal etishga katta hissa qo'shadi, ijtimoiy ishlab chiqarish aholining iste'mol tovarlari va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondiradi. Bozor munosabatlarga o'tish savdoni tashkil etish va texnologiyasiga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-soni Farmonida uchinchi ustuvor yo'nalish sifatida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashni belgilab berilgan. Aynan shu yo'nalishda iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi yillarda respublika hududlarida savdo va yo'lbo'yи xizmatlarini rivojlantirish orqali 130 ta zamonaviy bozorlar va savdo komplekslari, shuningdek, yo'lbo'yи infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha 65 ta yirik hamda 5000 ta kichik xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish 21-maqsad sifatida aniq ko'rsatib o'tilgan<sup>[1]</sup>.



Respublika bo'yicha 2022-yilning-yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 319 288,2 mld. so'mni tashkil etib, 2021-yilning-yanvar-dekabr oylariga nisbatan 112,3 % ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 65 714,8 mld. so'mni (o'sish sur'ati 130,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 253 573,4 mld. so'mni (o'sish sur'ati 108,4 %), tashkil qilgan bo'lsa, ulgurji savdo tovar aylanmasi 247 076,9 mld. so'mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 26,8 % ga o'sdi [2].

O'zbekistonda milliy iqtisodiyotni tubdan isloh qilish jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor vazifalaridan biri savdo xizmatlarini ko'rsatish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, sifatlari tovarlarni iste'molchilarga o'z vaqtida yetkazib berish va sotishda zamonaviy savdo xizmatlarini tashkil qilish hamda ushbu xizmat imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2022-yil yakuni bo'yicha 357,6 trln so'mni tashkil etib, xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo xizmatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda va 88,9 trln. (24,9 %) ni tashkil etmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Respublikamizda mustaqillik yillarda savdo sohasi muammolariga B. Abdukarimov, A. Soliyev, E. S. Fayziev, F. B. Abdukarimov, O. M. Pardayevlar ilmiy izlanishlarini keltirish mumkin. B. Abdukarimov "savdo xizmati" tushunchasiga keng ma'noda, "savdo – xizmatning alohida turi bo'lib u bir tomonidan ishlab chiqaruvchilarga xizmat qiladi, ikkinchi tomonidan iste'molchilarga, uchinchi tomonidan davlatga xizmat qiladi va to'rtinchidan u boshqa iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga ham xizmat ko'rsatadi, ularni xizmatlaridan iste'molchi sifatida foydalanadi va ular bilan aloqada bo'ladi" [1] deb ta'kidlagan. A. Soliyev "Savdo xizmati sifatini oshirish xaridolarga maslahat berish, tovarlarning namunalarini harakatda ko'rsatish, reklama va axborotning turli shakllarini rivojlantirish yo'li bilan tovar tanlab olishda xaridolarga yordam berishni ham taqozo etadi" [2] deb ta'rif bergan. E. S. Fayziyevning ta'kidlashicha, "savdo xizmati – sotuvchi va xaridorning o'zaro harakati natijasi va sotuvchining xaridolrar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyatidir" [3]. F. B. Abdukarimov savdoning asosiy vazifalaridan biri iste'molchilarga xizmat qilish va aholi hayotini ta'minlaydigan alohida xizmat sohasi [4] deb ta'kidlagan. O. M. Pardayev "Mahsulotlarni sotish xizmati deganda, mahsulot (tovar) ning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga pul yoki boshqa shunga tenglashtirilgan boylikka almashtirish evaziga mulk egasining (mulkka egalik huquqining) o'zgarishini ta'minlash jarayonida ko'rsatiladigan xizmatlar bilan bog'liq munosabatlар tushuniladi" [5] deb ta'rif bergan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ma'lumotlarni jadvallar asosida tahlil qilish, ma'lumotlarni guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash tizimli tahlil asosida statistik guruhlash hamda ekspert baholash usullaridan unumli foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda xizmat sohalarida tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini yuksaltiribgina qolmasdan, aholi farovonligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi daromadlarining mazmuni va tarkibi bozor munosabatlari sharoitida tubdan o'zgardi. Chunki, oldin daromadi asosan mehnat daromadidan tarkib topgan bo'lsa, endilikda bu manba yetarli bo'limasdan qoldi. Shu tufayli, har bir oila endilikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishini hayotning o'zi taqozo etadi.

Xizmatlar sohasi mamlakat iqtisodiy o'sishi, arzon ish o'rnlari yaratish, bandlikni ta'minlash va kambag'allikni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro mehnat tashkiloti hisob-kitobiga ko'ra, xizmatlar sohasining 1 foizga o'sishi kambag'allikni o'rtacha 1,5 foizga qisqartiradi.

Iqtisodiy rivojlanishning dastlabki bosqichlarida sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining rivoji mahsulotlarni yetkazib berish (transport sohasi), kommunal infrastrukturalar (suv, gaz, elektr, kanalizatsiya), ishlab chiqarishni moliyalash (banklar), mahsulotlar bozorini kengaytirish (axborot, kommunikatsiya xizmatlari) va boshqa muhim xizmatlarga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, mamlakatda mehnat unumdorligini va inson kapitalini oshirish (ta'lim, sog'liqni saqlash), xalqaro savdoni kengaytirish imkoniyatlari ham xizmatlar sohasining rivojini talab qiladi.

Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning 38 foizi va umumiy korxonalarning 60 foizi xizmatlar sohasiga to'g'ri keladi. Respublikada jami band aholining 50 foizdan ortig'i xizmatlar sohasining ulgurji va chakana savdo (10,6 foiz), ta'lim (8,4 foiz), transport (4,8 foiz), davlat boshqaruvi (4,7 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (4,6 foiz) sohalarida faoliyat yuritib kelmoqda.



Solishtirish uchun Rossiya (56 foiz), Qozog'iston (56 foiz), Belarus (50 foiz) va Janubiy Koreyada (57 foiz) xizmatlar sohasida mamlakat yalpi daromadining yarmidan ko'pi yaratiladi [3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-sonli "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishda katta imkoniyatlarni ochib berdi. Jumladan:

a) har bir tuman va shaharlarda:

- budjet mablag'lari hisobiga 2021–2022-yillarda shaharsozlik loyihalari asosida mukammal ta'mirlangan, tashqi yoritish, sug'orish va drenaj tizimlari modernizatsiya qilingan, piyoda va velosiped yo'laklari qurilgan hamda aholi gavjum bo'lgan ko'chalarni savdo, xizmat ko'rsatish, sayilgoh va ko'ngilochar ko'chalariga aylantirish;

b) Toshkent, Nukus shaharlari, viloyatlar markazlari hamda boshqa shaharlarda ko'pi bilan har 3–5 ta mahalla uchun aholi gavjum bo'lgan ko'chani obodonlashtirib, piyodalar yo'lakchalarini kengaytirish va ularni yoritish orqali mahallalararo savdo-xizmat ko'chasini tashkil etish;

d) aholisi 300 mingdan kam bo'lgan tumanlarda:

- sanoat va xizmatlar sohasi yuqori sur'atlarda rivojlanib borayotgan tumanlarda – savdo, mehmonxona, ovqatlanish va logistika xizmatlarini, shuningdek, texnik xizmat ko'rsatish va ko'ngilochar maskanlarni tashkil etishga ustuvorlik berish;

- tog'li, tog'oldi, rekreatsion turizm salohiyati yuqori tumanlarda – avtomobil yo'llari, elektr energiyasi va ichimlik suvi ta'minoti hamda boshqa infratuzilmani yaxshilash va tayyor loyihamonlari asosida turizm xizmatlarini rivojlantirish;

- chegara hududlarda joylashgan hamda hududidan xalqaro avtomagistrallar va temir yo'llar o'tgan tumanlarni – savdo, turizm, logistika hamda yo'l bo'yli xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashshtirish;

- e) o'rta va yirik shaharlar hamda aholisi 300 mingdan ko'p bo'lgan tumanlarda – zamonaviy bozor xizmatlari, ta'lif, tibbiyat, san'at, turizm, mehmonxona va umumi ovqatlanish hamda transport xizmatlarini rivojlantirish;

- f) Toshkent, Samarqand va Namangan shaharlarida – yuqori daromadli xizmatlarni, ayniqsa, yirik savdo va ko'ngilochar xizmat ko'rsatish obyektlarini ko'paytirish, ta'lif va tibbiyat muassasalari joylashgan hududlarda ixtisoslashgan klasterlar tashkil etish belgilab berildi.

2022-yil 1-apreldan 2025-yil 1-yanvarga qadar chakana savdo va umumi ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish) xizmatlari, avtotransportda yo'lovchi va yuk tashish, transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish, kompyuter xizmatlari, maishiy texnikani ta'mirlash, agro va veterinariya xizmatlarini ko'rsatuvchi hamda ko'ngilochar maskanlarda xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz etib belgilandi. Bunda:

mazkur soliq imtiyozi tadbirkorlik subyektlari tomonidan, agar ularning yuqorida ko'rsatilgan faoliyat turlarini amalga oshirishdan olgan daromadlari joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha jami daromadning kamida 60 foizini tashkil etsa, qo'llaniladi.

Tadbirkorlik subyektlariga 2022-yil 1-yanvardan boshlab 2027-yil 1-yanvarga qadar mehmonxona (joylashtirish vositalari) va-maydoni 5 ming kvadrat metrdan yuqori bo'lgan savdo komplekslari (shu jumladan, ular egallagan yer uchastkalari) bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarini 90 foizga kamaytiriladi. Bunda, 2027-yil 1-yanvargacha yangidan quriladigan obyektlarga (shu jumladan, ular egallagan yer uchastkasiga) nisbatan mazkur imtiyozi ular foydalanishga topshirilgan oydan boshlab 5 yil muddat davomida qo'llaniladi [4].

Qaror bilan foyda solig'ini hisoblashda binolarning qiymatini ikki yil davomida amortizatsiya xarajatlari sifatida chegirish huquqi berildi.



**1.3-jadval:** Mehmonxona (joylashtirish), savdo, umumiy ovqatlanish, ko'ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun maxsus soliq rejimi joriy etiladigan tuman va shaharlar tahlili

T/r	Hudud nomi	Tuman nomi
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Taxtako'pir tumani, Xo'jayli tumani, Ellikqal'a tumani
2	Andijon viloyati	Xonobod shahri
3	Buxoro viloyati	Kogon tumani, Romitan tumani
4	Jizzax viloyati	Arnasoy tumani, Forish tumani, Zomin tumani
5	Qashqdaryo viloyati	Kitob tumani, Shahrisabz tumani, Qamashi tumani
6	Navoiy viloyati	Xatirchi tumani, Nurota tumani, Qiziltepa tumani
7	Namangan viloyati	Chust tumani, Yangiqo'rg'on tumani
8	Samarqand viloyati	Urgut tumani, Payariq tumani, Samarqand tumani, Toyloq tumani
9	Sirdaryo viloyati	Xovos tumani
10	Surxondaryo viloyati	Boysun tumani
11	Toshkent viloyati	Angren shahri, Ohangaron tumani, Parket tumani, Bo'stonliq tumani
12	Farg'ona viloyati	Rishton tumani
13	Xorazm viloyati	Bog'ot tumani, Xiva tumani, Xiva shahri

1.3-jadvaldan shuni ko'rish mumkinki, respublikaning 13 ta hududlaridagi 31 ta tumanlarida mehmonxona (joylashtirish), savdo, umumiy ovqatlanish, ko'ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun maxsus soliq rejimi (aylanmadan olinadigan soliq stavkasini – 1 foiz) joriy etildi.

Ushbu hududlardagi obyektlar va ular egallagan yer uchastkasi bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i miqdorlarini – mazkur soliqlar bo'yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida belgilanadi.

**1.4-jadval:** Maxsus xizmat ko'rsatish ko'chalariga aylantiriladigan markaziy ko'chalar va tashkil etiladigan servis obyektlari soni

T/r	Hudud nomi	Ko'chalar soni	Tashkil etiladigan servis obyektlari soni
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	17	730
2	Andijon viloyati	16	593
3	Buxoro viloyati	13	603
4	Jizzax viloyati	17	622
5	Qashqdaryo viloyati	18	930
6	Navoiy viloyati	10	420
7	Namangan viloyati	22	729
8	Samarqand viloyati	20	820
9	Sirdaryo viloyati	21	1013
10	Surxondaryo viloyati	24	704
11	Toshkent viloyati	22	1159
12	Farg'ona viloyati	22	837
13	Xorazm viloyati	13	613
14	Toshkent shahar	13	653



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, mamlakatimizning bugungi rivojlanish bosqichida xizmatlar sohasini rivojlantirish, uni iqtisodiyotimizning "lokomotiv"iga aylantirish YalMni 100 milliard dollardan oshirish va pirovardida mamlakatimiz daromadi o'ttadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga qo'shilishiga zamin yaratadi. Mamlakatimizda xizmatlar rivoji faqat shu sohani rivojlanribgina qolmay, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham multiplikativ ta'sir ko'rsatadi. Masalan, moliya, sug'ortalash xizmatlariga talabning 1 million so'mga o'sishi iqtisodiyotda qo'shimcha 3,2 million so'm qiymat yaratadi. Xuddi shunday katta multiplikativ ta'sirga ega bo'lgan sohalar qatoriga konsalting xizmatlari, yashash va umumiy ovqatlanish, turizm, ta'lif, sog'liqni saqlash va kommunal xizmatlarni kirtsa bo'ladi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurakov B. A. va boshq. Savdo iqtisodiyoti muammolari. O'quv qo'llanma. – T. : Iqtisod-moliya, 2016, 504 b.
2. Soliyev A., Buzrukxonov S. Marketing. Bozorshunoslik. Darslik. – T. : "Iqtisod-moliya", 2010, 294 b.
3. Fayziyev E. S. Servis tizimi faoliyati asoslari. O'quv qo'llanma. Samarqand. "Zarafshon", 2010, 170 b.
4. Abdurakov F. B. Savdoda bozor mexanizmini takomillashtirish va samaradorligini oshirish yo'llari (Samarqand viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand: SamISI, 2011, 156 b.
5. Pardayev O. M. Mahsulotlarni saqlab sotish xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. Monografiya. – T. : Fan va texnologiya, 2017, 284 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. -T. : "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2022-yil, 28-yanvar – <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining O'zbekiston Respublikasida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi (2022-yil yanvar-dekabr) hisoboti.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-sonli "Xizmatlar sohasini rivojlantrishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori.

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027



**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi 26-uy.